ASPIRATSION PNEVMONIYA: ZAMONAVIY QARASHLAR, DIAGNOSTIKASI VA XAVF OMILLARI

. Muallif: Muzaffarova Yashnargul Dilshod qizi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Toshkent Davlat Tibbiyot Universituti
1-son tibbiy radiologiya kafedrasi katta oqituvchisi
Xodjamova Gulbaxor Adhamjon qizi

Annotatsiya Aspiratsion pnevmoniya zamonaviy tibbiyotda muhim klinik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu tahliliy maqolada aspiratsion pnevmoniyaning patogenezi, xavf omillari, diagnostik mezonlari va zamonaviy qarashlar ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Disfagiya, nevrologik kasalliklar, yashirin aspiratsiya va og‘iz gigiyenasining pastligi asosiy xavf omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Aspiratsion pnevmoniyani aspiratsion pneumonitdan farqlashning klinik ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: aspiratsion pnevmoniya, disfagiya, silent aspiratsiya, diagnostika, pneumonit

Kirish Pnevmoniya dunyo bo‘ylab keng tarqalgan infeksion kasalliklardan biri bo‘lib, ayniqsa keksa yoshdagi bemorlarda yuqori o‘lim ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi . Aspiratsion pnevmoniya esa uning alohida shakli bo‘lib, orofaringeal yoki me’da tarkibining nafas yo‘llariga tushishi natijasida rivojlanadi .So‘nggi yillarda ushbu kasallikning ahamiyati ortib borayotgan bo‘lib, bu holat aholining qarishi, surunkali kasalliklarning ko‘payishi va immunitet pasayishi bilan izohlanadi. Aspiratsion pnevmoniya va pneumonit. Aspiratsion pnevmoniya — bu bakteriyalar bilan kolonizatsiyalangan orofaringeal sekretlarning aspiratsiyasi natijasida yuzaga keladigan infeksion jarayon hisoblanadi .Aspiratsion pneumonit esa steril me’da tarkibining aspiratsiyasi natijasida yuzaga keladigan kimyoviy shikastlanishdir. Ushbu ikki holatni farqlash muhim, chunki pneumonitda antibiotiklar har doim ham talab qilinmaydi.Etiopatogenez va

mikrobiologiya.Aspiratsion pnevmoniya rivojlanishida asosiy rolni mikroaspiratsiya va orofaringeal mikroflora o‘ynaydi. O‘pka mikrobiomi yuqori nafas yo‘llari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mikroorganizmlar aspiratsiya orqali o‘pkaga tushadi . Ko‘p uchraydigan patogenlar quyidagilar: Streptococcus pneumoniae, Staphylococcus aureus, Gram-manfiy bakteriyalar

Xavf omillari Aspiratsion pnevmoniya rivojlanishiga quyidagi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi:disfagiya, nevrologik kasalliklar (ayniqsa insult), yashirin aspiratsiya,og‘iz gigiyenasining pastligi, gastroezofageal reflyuks, sedativ dorilar.Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, insultdan keyin bemorlarning 40–70% ida silent aspiratsiya kuzatiladi .

Diagnostika Diagnostika kompleks yondashuvni talab qiladi:Klinik belgilar:yo‘tal, isitma, nafas qisishi. Radiologik belgilar:infiltratlar ko‘pincha o‘pkaning pastki bo‘laklarida joylashadi Qo‘shimcha usullar:KT,,bronxoskopiya, videoflyuroskopiya Biomarkerlar esa differensial diagnostikada cheklangan ahamiyatga ega.

Zamonaviy ilmiy qarashlar

Zamonaviy tadqiqotlar aspiratsion pnevmoniyaning patogenezini yanada chuqurroq tushuntirib bermoqda. Michael S. Niederman va Catia Cilloniz ta’kidlashicha, mikroaspiratsiya barcha pnevmoniya turlarida uchrasa-da, aynan makroaspiratsiya aspiratsion pnevmoniyaga olib keladi.Ularning ma’lumotlariga ko‘ra, statsionar bemorlarning 10–30% ida pnevmoniya aspiratsiya bilan bog‘liq, va aspiratsion pnevmoniyada o‘lim darajasi yuqoriroq. AQShda yiliga o‘rtacha 58 000 o‘lim holati qayd etilib, ularning 76% 75 yoshdan katta bemorlarga to‘g‘ri keladi.Shuningdek, Peter E. Marik aspiratsion pneumonit va pnevmoniyani farqlash klinik jihatdan muhim ekanligini ko‘rsatadi. Pneumonit kimyoviy shikastlanish bo‘lib, har doim ham antibiotik talab qilmaydi, pnevmoniya esa infeksion jarayon hisoblanadi.Jordi Almirall tomonidan taklif etilgan konsepsiyaga ko‘ra, aspiratsion pnevmoniya tashxisi aspiratsiya xavfi va orofaringeal kolonizatsiya omillarini birgalikda baholashga asoslanishi kerak .Bundan tashqari, Charles Feldman va

Ronald Anderson pnevmoniyaning og‘ir kechishida immunitet pasayishi va komorbid holatlarning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

Muhokama.Aspiratsion pnevmoniya ko‘pincha yetarli darajada aniqlanmaydi. Ayniqsa yashirin aspiratsiya mavjud bo‘lgan holatlarda tashxis qo‘yish qiyinlashadi. Disfagiya va og‘iz gigiyenasi modifikatsiya qilinadigan asosiy xavf omillari bo‘lib, profilaktika choralarini kuchaytirish kasallikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

XulosaAspiratsion pnevmoniya klinik jihatdan muhim kasallik bo‘lib, ayniqsa keksa va nevrologik bemorlarda keng tarqalgan.Asosiy xavf omillari: disfagiya, nevrologik kasalliklar**,** yashirin aspiratsiya**,** og‘iz gigiyenasining pastligi**.** Erta diagnostika va kompleks yondashuv kasallik oqibatlarini kamaytiradi. Amaliy tavsiyalar disfagiyani erta aniqlash**,** og‘iz gigiyenasini yaxshilash**,** aspiratsiya profilaktikasi**,** nevrologik bemorlarni monitoring qilish**,** sedativ dorilarni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash

Foydalanilgan adabiyotlar

Almirall J., Boixeda R., Torres A. Aspiration pneumonia. 2021.

Xoltayeva F.F. Pnevmoniyaning global ahamiyati. 2025.

Niederman M.S., Cilloniz C. Aspiration pneumonia. 2022.

Marik P.E. Aspiration pneumonitis and pneumonia. 2025